

O‘QUV DASTUR PASPORTI

O‘quv dastur SSV huzuridagi Tibbiyot va farmasevtika uzluksiz kasbiy ta’lim muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025 yil “14” avgust №3-sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2030 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi		Tibbiyot xodimlarning kasbiy malakasini rivojlantirish markazi	
Kafedra		Epidemiologiya	
O'quv dastur nomi		Tibbiy entomologiya	
O'qish turi		Umumiy malaka oshirish	
O'quv dastur mualiflari		Iskandarova G.T., Raxmanova J.A., Ne'matov A.S., Zoirova N.T.	
Siklning umumiy soati		144 kredit	
Siklda dars beradigan professor-o'qituvchilar			
			
t.f.d., professor Iskandarova G.T.	t.f.d., professor Raxmanova J.A.	t.f.d., professor Ne'matov A.S.	katta o'qituvchi Zoirova N.T.
Maqsad		Tibbiy entomologlarning kasbiy bilim darajasi va malakasini oshirish, bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish va yangilash, professional kompetensiyalarini takomillashtirish, yetuk, barkamol, sog'lom va ilg'or shifokor shaxsini shakllantirish. Aholining ongiga sog'lom hayot turmush tarzi, infeksiyon va noinfeksiyon kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlarini o'rgatadigan, ularda yuqumli kasalliklarni aniqlay oladigan, parazitologik tashhis, parazitologik va entomologik nazorat, profilaktika va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar, zamonaviy laborator usullari bilan parazitar kasalliklarni aniqlashni amaliyotga joriy qilish bo'yicha nazariy bilim va amaliy	

	ko'nikmalarini mukammallashtirish va yangilashdan iborat.
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	internatura, klinik ordinatura, magistratura yoki boshlang'ich ixtisoslashtirishda mazkur mutaxassislik olganligini tasdiqlovchi hujjati bo'lgan vrach-entomologlar, vrach-parazitologlar va vrach-epidemiologlar.
Sikl vazifalari	Zamonaviy tibbiy entomologik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish; - shifokorlarni isbotlangan tibbiyot asoslariga o'rgatish va uni tibbiy entomologiyada amaliyotga tadbiq qilish; - epidemik tashhis, epidemiyaga qarshi yangi usullarni, aholini kasallikka moyilligini, epidemiologik diagnostika, epidemiologik nazorat, olingan kasallik ma'lumotlar bo'yicha xisobot rasmiylashtirish; - kasallik chaqiruvchi bo'g'imoyoqlilar ustidan entomologik nazoratni tashkillashtirish va olib borishni o'rgatish; - tibbiy entomologik, profilaktik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni o'rgatib, amaliyotda joriy qilish, yuqumli kasalliklar paydo bo'lganda qo'llanadigan rejim qoidalarini o'rgatish.
Sikl tarkibi	Modul 1. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish Konsepsiyasi. Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, me'yoriy hujjatlar. O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida me'yoriy xujjatlar Sanitariya-epidemiologik osoishtalik va jamoat salomatligi ko'mitasini faoliyati va me'yoriy hujjatlar. Modul 2. Tibbiy entomologiyaning zamonaviy talqini Modul 3. Umumiy va xususiy tibbiy entomologiyani o'qitishda zamonaviy yondoshuv Modul 4. Xususiy parazitologiya va entomologiyaning dolzarb masalalari Modul 5. Parazitologiya va entomologiyaning

	dolzarb mavzulari bo'yicha ko'chma mashg'ulotlar
O'qish bazalari	Sanitariya-epidemiologik osoishtalik va jamoat salomatligi ko'mitasi, parazitologiya laboratoriyasi
Simulyatsion asbob/uskunalar	O'latga qarshi kostyum, Shaxsiy himoya vositalari, tibbiy chiqindilarni xavfsiz yo'qotish jihozlari, anjomlar, xavfli yuqumli chiqindilari va simobli chiqindilar to'kilganda yig'ib olish uchun mo'ljallangan to'plam, LUER tizimli konteynerlar, dezinfeksiya qilish uchun gidropult, dezinfeksiya vositalari, mikroskop va preparatlar. Statistik ishlar oborish uchun 20-ta kompyuter.